



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI KAFEDRASI

KURS ISHI

Fan: O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi

**Mavzu: Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonidagi she’riy
parchalarning janriy xususiyatlari**

Bajardi: Sherxonova Z.

Tekshirdi: Sulaymonov I.

Samarqand - 2014

ANDALIBNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDAGI SHE’RIY PARCHALARNING JANRIY XUSUSIYATLARI

R E J A :

I Kirish.

II Asosiy qism:

- 1. Nurmuhammad Andalib hayoti va adabiy merosi**
- 2. Qissalarning go’zali “Yusuf va Zulayho” dostonining yaratilish manbaalari**
- 3. “Yusuf va Zulayho” mavzuidagi dostonlarda an’ana va o’ziga xosliklar**
- 4. Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonidagi she’riy parchalarning janriy xususiyatlari**

III Xulosa.

IV Foydalanilgan adabiyotlar.

Biz tadqiqotga tortgan Andalibning “Yusuf va Zulayho” qissasi qadimiy syujetga ega asarlardan hisoblanadi. Dastlab qissa sura sifatida Qur’oni karimda mavjud bo’lgan paytlardan boshlab Chahoryorlar, Sahobalar, Muhaddislar, mufasssirlar, mutasavvuflar va qissaxon roviylar Tavrot, Injil va folklor namunalaridan foydalanib syujetni to’ldirish, mukammallashtirishga kirishganlar va bunda fantaziyaga ham keng o’rin berilgan. Undagi har bir voqea xilma-xil shakl va yo’nalishlarda izohlangan. Keyingi asarlarda arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarda yuzaga kelgan «Qisasul-anbiyo»larda ana shu izohlardan foydalanishgan. Bu jihatdan ayniqsa Rabg’uziyning asari qissadagi har bir sahnaning g’oyat xilma-xil tomondan izohlanganligi bilan ajralib turadi. Rabg’uziy shu qissani yozishda 20 dan ortiq manbaga murojaat qilgan.

Sharq badiiy adabiyotida bu mavzu dastlab Abulqosim Firdavsiy tomonidan ishlangan degan fikrlar bor. Bu fikrga e’tiroz bildirganlar ham yo’q emas. Har holda bu syujetni IX-X asrlardan boshlab to XX asr boshlariga qadar arab, fors, turk, o’zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, tatar va boshqa tillarda yuzdan ortiq mualliflar qalamga olganlar.

O’zbek adabiyotida Qur’oni karimdan boshlab Ali (XIII asr), Rabg’uziy (XIII-XV asrlar), Durbek (XIV-XV asrlar), Alisher Navoiy (XV asr), Andalib (XVIII asr), Sayqaliy (XVIII asr), Salohiy (XVII-XIX asrlar), Xolis (XVIII-XIX asrlar), Xiloliy (XVIII-XIX asrlar), Mirzo Olimbek (XIX asr) va boshqalar ijodlarida bu syujet murakkab jarayonni boshdan kechirdi. U davrdan davrga dunyoviylashib zamonaviylashib bordi.

Yusuf va Zulayho sarguzashtlarining g’oyat xalqchil, ommabop va hayotiy bo’lishida XVIII asrda yashab ijod etgan va o’zbek hamda turkman xalqlari o’rtasida mashhur bo’lgan shoir Nurmuhammad Andalib katta hissa qo’shdi.

Biz ushbu kichik tadqiqotda Andalib hayoti, adabiy merosi hamda “Yusuf va Zulayho” dostonlari ichida alohida o’ziga xosliklarga ega bo’lgan dostonning an’anaviylik va navotorlik jihatlarini adabiyotshunos olimlarimizning katta

tadqiqotlaridan unumli foydalangan holda umumlashtirib ko'rib chiqishga harakat qilamiz. *“Andalibning mushkulin oson qil, Qodir egam, dardina darmon qil”*.

Nurmuhammad Andalibning ismi, tug'ilgan joyi va hayoti haqidagi qisqa qaydlar uning “Yusuf va Zulayho” dostonining kirish qismida keltirilgan. Shu dostondagi to'qson olti misrali masnaviyda:

“Ismim erur Nurmuhammad Garib,
So'zda taxallusim edi Andalib.
Shahrimiz Urganch viloyat edi,
Xonimiz Shah G'ozi himoyat edi,
Asli makonim ki Qaromozidur,
Odami ishratda qishu yozidur...
Borcha xaloyiq ichida badishim,
Yetib ellik beshga maning bu yoshim...”¹

Munisning “Firdavs ul-iqbol” asarida keltirilishicha, Andalibning yuqoridagi misralarda nomi keltirilgan hukmdor Shohg'ozi atiga ikki yil hukmdorlik qilib, 1767-yili o'ldirilgan ekan. Bundan Andalibning 1711-1712-yillar mobaynida tug'ilganligi ma'lum bo'ladi. Biroq uning vafoti sanasi ma'lum emas. Ba'zi tadqiqot asarlarida uning 1770-1771-yili vafot etganligi taxmin qilinadi. “U Xiva madrasalarida o'qib o'z zamonasining zukko shoirlaridan bo'lib kamol topadi.

Andalibning “Zaynularab”, “Yusuf va Zukayho”, “Layli va Majnun” kabi dostonlari klassik dostonchilik hamda o'zbek va turkman xalqlari orasida keng tarqalgan “Xalq kitoblari”ning eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi”². Bu dostonlar XVIII-XIX asrlar davomida qayta-qayta ko'chirilgan chop etilgan.

¹ Q. Tohirov. Xalq qissasi “Yusuf va Zulayho”ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001.

² F. Musamammedov. Shoir Andalib haqida / O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1963. №4. 63-bet.

Uning yuqorida zikr etilgan uch dostoni ham xalq qissalariga xos an'analarga ega nasru nazm shaklida yozilgan. U "Zaynularab" dostonida Zaynularab bilan Muhammad Hanifa o'rtasidagi samimiy sevgini jozibali tasvirlaydi.

Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostoni shu turkumda yaratilgan an'anaviy dostonlarning yetuk namunalaridan biridir. Shoirning bu dostoniga Rabg'uziyning "Qissayi Yusuf" asari asosiy manba bo'lgan. Andalib dostonida ezgu orzu maqsadlar yo'lida har qanday qiyinchiliklarga, to'siqlarga qaramay kurashish kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Qur'oni karimda qissalarning go'zali deb atalgan Yusuf qissasi juda qadimiy syujetlardan biridir. U dastlab Muso alayhissalomga nozil qilingan Tavrotning birinchi kitobiga, keyin Iso alayhissalom ta'limotini o'z ichiga olgan Injilga kiritilgan. Rivoyatlarga ko'ra Chahoryorlardan hazrati Umar bilan yetti Yahudiy o'rtasida bahs bo'ladi. Yahudiylar Tavrotni Qur'oni karimdan afzalroq deb hisoblaydilar va bunga Qur'oni karimda Yusuf qissasining yo'qligini sabab qilib ko'rsatadilar. Hazrati Umar jim qolib, keyin Muhammad alayhissalomga bo'lgan voqeani bayon qiladi. Muhammad alayhissalom hayol surib qolganda Jabroil kelib Yusuf qissasini aytib beradi. Bu qissa Qur'oni karimga "Yusuf surasi" bo'lib kiradi. Agar Tavrotning tarixi uch ming yildan ziyodroq ekanligi hisobga olinsa, qissaning xalq og'zaki ijodi yoki tarixiy voqelik sifatida shakllangan vaqti undan ham qadimiyroq zamonlarga borib taqaladi. Har holda bu syujetning qadimgi yahudiylar va misrliklar orasida shakllanganligi aniq. Falastinda Yusufning onasi Rohil maqbarasi saqlanib qolganligi shundan guvohlik beradi. Har uchala ilohiy kitobda ham Zulayho obrazi uchramaydi, asosiy e'tibor Yusuf sarguzashtlari orqali insoniy axloq va odob masalalarini yoritishga qaratilgan. Tavrotda va Injilda Fir'avnning saroy soqchilari boshlig'i va misr hokimi Po'tifarning xotini, Qur'oni Karimda Yusufni sotib olgan kishining (ismi yo'q) xotini Yusufni sevib qolishadi. Aftidan, xalq og'zaki ijodi asarlarida uning ismi Zulayho deb yuritilganligi uchun

Tavrot, Injil va Qur'oni Karim syujetlari asosida shakllangan yozma adabiyot namunalarida hamda tafsirlarda uning nomi Zulayho bo'lib ketgan.

Tavrotda Fir'avn Yusufni O'n shahrining kohini Po'tifarning qizi Usnatga uylantirib qo'yadi. Qur'oni karimda esa Yusufning Misr hokimi bo'lishi va uylanishi haqida hech narsa deyilmagan. Shu bilan birga, Qur'oni karimda Yusufning akalari, ukasi va singlisi nomlari, Misr podshohi, Misr hokimi, Yusufning onasi, quli, o'gillari, Yusufni Misrga sotgan savdogar va uning qullari nomlari ham keltirilmagan. Unda faqat Yusuf va uning otasi Yaqub ismi mavjud. Tavrotda Yusufning hamma akalari, ukasi va singlisi nomlari bor. Misr podshosi umumiy nom Fir'avn nomi bilan kelgan, Misr xokimining nomi Po'tifar, uning xotinining nomi esa keltirilmagan. Tavrotda Yusufning onasi Rohil vafot etgan bo'ladi. Qur'oni Karimda u tirik, asar oxirida u ham boshqalar qatori Misrga boradi va u yerda Yusufning ko'rgan tushi hayotda voqe' bo'ladi. Yusufning yoshligida ko'rgan tushi, osmondan oy, kun va o'n bir yulduzning pastga inib, Yusufga ta'zim qilishi epizodi Tavrotda bor. U asarning boshida Yusufning ikkinchi tushi sifatida keltirilgan. Ammo oxirida uning hayotda amalga oshganligi aytilmaydi. Yusufning birinchi tushi - dalada akalari bilan bog'lam bog'layotganini, uning bog'lami tik turib, akalarining bog'lami unga ta'zim qilganligi Qur'oni karimda yo'q. Ammo Tavrot va Injilda uchraydigan boshqa bir necha epizodlar singari u ham islomiy adabiyotda mavjud badiiy asarlarda hikoya qilingan. Tavrotda akalari Yusufni quduq boshida Ismoiliiy savdogarlarga yigirma kumush tangaga, savdogarlar esa uni Misrga olib borib, shahar hokimi va Fir'avn saroyi soqchilari boshlig'i Po'tifarga sotadilar.

U Yusufni xonadonining boshqaruvchisi qilib qo'yadi. Qur'oni karimda Yusufni akalari sotib yuborishmaydi. Yusuf quduqqa tashlangan chelakka osilib chiqadi va savdogarlar uni sotiladigan narsalari qatori yashirib qo'yadilar va Misr bozorida g'oyat arzon bahoda - bir necha tangaga sotib yuboradilar. Aytish kerakki, badiiy asarlar va tafsirlarda shu lavhalarni hikoya qilishda Qur'oni karimdan chetga chiqilgan o'rinlar bor. Masalan, Yusuf haqidagi deyarli hamma

badiiy asarlarda Yusufni akalari tomonidan g'oyat arzon bahoda sotib yuborilgani aytilgan va u chiroyli izohlangan. Yusuf bir vaqt oynaga qarab yoki quduqdagi suvda aksini ko'rib o'z jamoliga oshiqcha baho beradi. Bu xudoga ma'qul bo'lmaydi va shuning uchun u dastlab arziyas narxda sotiladi. Yusuf maqtanchoqligi esiga tushib xudodan mag'firat so'raydi. Keyin Misr bozorida Parvardigor o'z siddiq bandasi va payg'ambarining haqiqiy narxini belgilaydi. Uni hech kim sotib ololmaydi, Misr hokimining ham xazinasini yetmaydi - Yusuf xaridorini xijolatdan chiqarib o'z ixtiyori bilan qullikni bo'yniga oladi. Badiiy asarlarda, shuningdek, Rabg'uziy, "Qisasul anbiyo"da Yusufning Misr bozoridagi holati shu darajada har tomonlama va ruhiy kechinmalarga boy tarzda tasvirlanganki, quduq boshidagi narxi uni tamoman o'zga bir insonga aylantirganligi, unda so'fiyona kayfiyat qaror topganligi aniq bilinadi.

Yusuf haqidagi badiiy asarlarda mavjud eng ta'sirchan va hayajonli lavhalardan biri Yusufning onasi qabri ustidagi holati tasviridir. Bunda ham Tavrotga asoslanilgan. Tavrotda Yusufning onasi qabri ustidagi faryodi berilmagan bo'lsa ham, onasining vafot etganligi aytilgan.

Payg'ambar Ya'qubning keyingi farzandlarini ko'proq sevishi sabablaridan biri ham ularning onasiz ekanliklarida deb izohlangan. O'zbek va fors-tojik adabiyotida mavjud asarlarda va «Qisasul anbiyo»larda Tavrotdagidek Yusufning onasi vafot etgan deb ko'rsatilgan va Yaqubning Yusuf va Ibn Yaminni ko'proq yaxshi ko'rganligi onalarining yo'qligi uchun deyilgan va bundan qabr ustidagi holatni tasvirlashda juda ustalik bilan foydalanilgan. Rabg'uziyning "Qisasul anbiyo" asarida ham, Durbek va Andalib asarlarida ham bu epizodlar juda hayajonli chiqqan. Ammo buning evaziga Misrda Yusuf tushining hayotda amalga oshishi epizodi o'z-o'zidan tushib qolgan yoki keltirilgani ham mantiqsiz chiqqan. Ya'ni ayrim asarlarda Yusufning onasi qabri ustidagi nolalari ham, oxirida Misrda ko'rgan tushining ro'yobga chiqishi ham mavjud.

Fors-tojik va o'zbek adabiyotida Qissaning Tavrot nusxasi ham katta ta'sir ko'rsatganligini aniq his etish uchun Qur'oni karim va Tavrot nusxalarini qiyoslash kerak bo'ladi.

Qissa sura sifatida Qur'oni karimda mavjud bo'lgan paytlardan boshlab Chahoryorlar, Sahobalar, Muhaddislar, mufasssirlar, mutasavvuflar va qissaxon roviylar "Tavrot", "Injil" va folklor namunalaridan foydalanib syujetni to'ldirish, mukammallashtirishga kirishganlar va bunda fantaziyaga ham keng o'rin berilgan. Undagi har bir voqea xilma-xil shakl va yo'nalishlarda izohlangan. Keyingi asarlarda arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarda yuzaga kelgan «Qisasul-anbiyo»larda ana shu izohlardan foydalanishgan. Bu jihatdan ayniqsa Rabg'uziyning asari qissadagi har bir sahnaning g'oyat xilma-xil tomondan izohlanganligi bilan ajralib turadi. Rabg'uziy shu qissani yozishda 20 dan ortiq manbaga murojaat qilgan.

"Rabg'uziy bu qissaning ahsan (go'zal) deyilishi sababini quyidagicha izohlaydi:

- 1) Qur'ondagi boshqa hamma qissalardan foydasi ko'proq eukanligi;
- 2) Qissa boshdan oxir, bir qavlda qirq yil, boshqa birida sakson yil ichida bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga olganligi;
- 3) Qur'oni karimda boshqa qissalar turli oyat va suralarda, Yusuf qissasi esa faqat bir oyat - Yusuf surasida kelganligi;
- 4) Boshqa qissalarda voqealar begona odamlar orasida yuz berganligi;
- 5) Qissada uch hol: rohatda va mashaqqatlarda Ollohga itoatda, xaloyiq orasida ezgu muomalada, yaxshi va yomon kayfiyatda bo'lganda bag'ri keng, ochiq bo'lmoq borligi;
- 6) Yusufning o'z og'alari bilan ezgu muomala qilganligi. ularning jafosiga sabr-bardoshli bo'lganligi;

7) Qissaning avvali tush, o'rtasi tush va oxirida ham tush ko'rish borligi;

8) Qissaning ishq bilan tamom bo'lganligi;

9) Rasul alayhissalomning bu sura haqida aytgan quyidagi gaplari:

"Kimki o'n turli baloga yo'liqsa o'n surani o'qisin" vasvasaga tushsa "Alhamdu" surasini, o'g'rilardan qutulayin desa "Suratul baqara"ni, Qashshoqlikdan qutulayin desa "Oli Imron"ni, Qayg'u ko'ngildan ketsin desa "Suratul anom"ni kel, nifoq ko'nglumdan chiqsin desa, «Suratul anfol»ni achchig'im tarqalsin desa "Suratul asr"ni, qayg'u manga harom bo'lsin desa "Alam nashrah"ni, kufr va shirk mendan ketsin desa "Suratul-ixlos"ni, jodudan omonlik tilasa "Suratul-mu'avvizatayin"ni, bularning hammasidan qutilishni istasa "Yusuf" surasini o'qisin.

Suraning "ahsanul qisas" (qissaning go'zali) deyilish sababini yana boshqa fazilatlari bilan ham izohlaydilar"³.

Qur'oni karimdan boshlab bu syujet islomiy adabiyotda dastlab arab, keyin fors-tojik va turkiy tilda yaratilgan sharhlar va qissalarda mukammallashtirila boshlandi. Bunda ayniqsa "Ka'bul-axbor" degan nom olgan Abu Is'hoq Ka'b ibn Mote (VII asr)ning xizmati katta bo'lgan, chunki ko'p manbalarda, jumladan, "Qisasul anbiyo"yi Rabg'uziyda ham "Ka'bul-axbor" qissalar to'plami ko'p tilga olingan. Bu kitob boshqa qissa va dostonlarga ham manba bo'lib xizmat qilgan.

Sharq badiiy adabiyotida bu mavzu dastlab Abulqosim Firdavsiy tomonidan ishlangan degan fikrlar bor. Bu fikrga e'tiroz bildirganlar ham yo'q emas. Har holda bu syujetni IX-X asrlardan boshlab to XX asr boshlariga qadar arab, fors, turk, o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, tatar va boshqa tillarda yuzdan ortiq mualliflar qalamga olganlar.

³ Q. Tohirov. Xalq qissasi "Yusuf va Zulayho"ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001.

O'zbek adabiyotida Qur'oni karimdan boshlab Ali (XIII asr), Rabg'uziy (XIII-XV asrlar), Durbek (XIV-XV asrlar), Alisher Navoiy (XV asr), Andalib (XVIII asr), Sayqaliy (XVIII asr), Salohiy (XVII-XIX asrlar), Xolis (XVIII-XIX asrlar), Xiloliy (XVIII-XIX asrlar), Mirzo Olimbek (XIX asr) va boshqalar ijodlarida bu syujet murakkab jarayonni boshdan kechirdi. U davrdan davrga dunyoviylashib zamonaviylashib bordi.

Dastlab "Qissayi Yusuf" deb yuritilgan asarlardan keyin Yusuf yoniga Zulayho ismi paydo bo'ldi. Muqaddas kitoblarda Po'tifar yoki Qutfiyrning xotini, Po'tifarning qizi O'snat deb nomlangan ayollar Zulayho nomida birlashdi. Bir qator mualliflar Zulayhoga ko'proq kinoya bilan qaradilar, uni o'z tuyg'ularini jilovlay olmagan ayol sifatida ko'rdilar, boshqalar unga hamdardlik bildirdilar. Ya'qub, Yusuf va Zulayho timsollari butun Sharq she'riyatida eng mashhur poetik obrazlarga aylandi. O'zbek adabiyotida ham bu obrazlardan foydalanmagan shoirlarni topish qiyin.

Buyuk shoir Alisher Navoiy "Yusuf va Zulayho" dostonini yozishni niyat qilgan, ammo umri vafo qilmagan. Shoirning bu asari qanday talqinda bo'lishi mumkinligini uning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida keltirilgan syujetdan taxmin qilishimiz mumkin. Navoiy bu mavzuda qalam tebratganlardan Abul Qosim Firdavsiy, Xo'ja Mas'ud Iroqiy, Abdurahmon Jomiylarni alohida qayd etgan.

"Yusuf va Zulayho sarguzashtlarining g'oyat xalqchil, ommabop va hayotiy bo'lishida XVIII asrda yashab ijod etgan va o'zbek hamda turkman xalqlari o'rtasida mashhur bo'lgan shoir Nurmuhammad Andalib katta hissa qo'shdi. Uning nasru nazmda yozgan "Yusuf va Zulayho" qissasi XX boshlarida Toshkent, Buxoro, Kogon, Samarqand shaharlarida olti marotaba qayta-qayta nashr qilingan. Toshkent, Ashxobod, Samarqand, Dushanbe, Sankt-Peterburg shaharlaridagi

qo'lyozmalar ma'xazlarida va ayrim kutubxonalarda uning yuzlab qo'lyozma nusxalari mavjud"⁴.

Andalibning bu dostoni Ashxabodda bir necha bor nashr ettirildi. 1973 yili adabiyotshunos Geldi Nazarov uning tanqidiy matnini tayyorladi.

Andalib bu mavzuda qalam tebratar ekan, o'zining qayd qilishicha "o'ziga hamdardu hamnishin bo'lgan" kishilarning iltimoslarini hisobga olgan:

“Keldi qoshimga necha hamdardlar,
Qurbu shijoatda sheramardlar.
Barchalari manga edi hamnishin,
Yuzlari-nur, so'zlari-dur, angubin.
Dedi alar: "Andalibi benavo",
Ko'nglumiza tushdi ajab mojarro,
Bor "Qasas" ichra ajab doston.
Ne bo'ladur kilsang ani bo'ston.
Yusufi siddiqo' Zulayhoni san,
Turki xaloyiqqa qilib bir chaman.
Eldin ela olib oni qilsa bo'y,
Bir necha zebolar ichra guftugo'y.
Ishqi haqiqiyni saboq aylasun,
Bo'yla erur oshiqi pok aylasun"⁵.

Andalib Yusuf haqidagi ko'p asarlarni o'qib chiqqan. Ammo asosiy manba unga "Qisasul anbiyo" bo'lgan. Shoir buni "Ammo noqiloni daftari mo'tabar "Qisasul-anbiyodan" rivoyat qilib xabar beribdurlarkim" kabi so'zlari bilan

⁴ R. Orzibekov. (XVII-XIX asr I yarmi) T.: 2006.

⁵ Q. Tohirov. Xalq qissasi "Yusuf va Zulayho"ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001.

tasdiqdaydi. Asarning Turli sahifalarida "yana bir rivoyatda aytibdurlarkim"... deyilishi shoirning boshqa mabalardan ham xabardor ekanligini ko'rsatadi.

Malumki, Durbekka nisbat bariladigan "Yusuf va Zulayho" Balx qamali sharoitida qamalda qolgan xalqni sabr-toqatga da'vat etish maqsadida yozilgan edi. Shoir asar bilan g'oyat mudhish azobda qolgan xalqning ruhini ko'tarishga harakat qilgan.

Andalib ham bu mavzuni tanlar ekan, ko'proq shu maqsadni nazarda tutgan. Chunki XVIII asrda, ayniqsa doston yozilgan davrlarda Xorazmda nihoyatda dahshatli manzara yuzaga kelganligi tarixdan ma'lum.

Nurmuhammad Andalib hamma joyda o'z asarining nomini "Kissai Yusufu-Zulayho", "Yusufi-Siddiqu Zulayho", "Yusuf birla Zulayho" qissasi kabi nomlar bilan ataydi va shunga muvofiq boshqa asarlarda o'z qulini sevib qolgan bir xotin sifatida talqin etilgan Zulayho Andalib dostonida to'laqonli badiiy obraz, chin sevgi, vafo-sadoqat, rahm-shafqat, latofat, kamtarinlik timsoli bo'lgan bir ayol obrazi darajasiga ko'tarildi.

Doston ma'naviy mavzu va syujet asosida yozilganligi sababli, uning asosiy syujeti ilgari yozilgan asarlarga o'xshash. Lekin Andalib ko'proq qahramonlarning paygambarlik sifatlariga emas, balki oddiy insonlar singari harakat qilishlariga asosiy e'tiborni qaratadi. U o'z davriga xos bo'lgan muhim masalalarni, o'z zamondoshlari orzu-maqсадlarini asarga singdiradi.

Dostonda Yusuf aqlu idrok, donishmandlik, muhabbatda sadoqatlilik ramzidir. U g'oyat mehribon farzand, sadoqatli va samimiy yor sifatidagina emas, doimo xalq g'amini o'ylaydigan inson ham. U o'zi qiynoqda bo'lsa ham, xalq osoyishtaligini o'ylaydi. Jumladan, quduqda yotgan vaqtida, qul singari sotilganida, Misr zindonaligida bo'lganidek, davlatga erishgan paytlarida ham o'z el-u yurtini, otasini, ukasi va onasini o'ylaydi. Turli munosabatlar bilan otasiga, "xaylu xeshiga", xalqiga salomlar yo'llaydi.

Yusufning xalqparvarligi alohida e'tibor bilan tasvirlagan. U Moliki Zag'arga akalari tomonidan sotilar ekan qo'yidagicha xayrlashadi:

Ayroliqni o'ti, dardi yomondur,
Otamning boshina oxir zamondur,
Bu ketmakdin endi kelmak gumondur
Elim, xalqim, qarindoshim, omon bo'l.

Bu misralar o'sha davr XVIII asrda Eron shohi Nodirshoh tomonidan asir olib ketilgan, o'zaro feodal urushlari davrida qul qilib sotilgan yigit va qizlarning nolasi sifatida jaranglaydi.

Andalib dostonining bir necha lavhalarida uchraydigan bu mazmun asarning davr bilan mustahkam aloqasi borligini ko'rsatadi.

Andalibning dostonida Yusuf va Zulayhoning o'zaro, gamxo'rligi shu darajada kuchli tasvirlanganki, biz buni boshqa "Yusuf va Zulayho"larda ko'rmaymiz. Yusuf o'limi yaqinlashganini sezib, Zulayho bilan vidolashadi, uning ko'ng'lini ko'taradi, u bilan baxtli hayot kechirgani uchun minnatdorlik qiladi. Zulayhoning o'z vafotidan keyin ham xursandchilik bilan hayot kechirishini istaydi:

Men ketganda qo'yma o'zung jafog'a,
Fig'on etib, qolma yana azog'a,
Topshurmisham sani qodir xudog'a,
Xush, omon bo'l, jonim, ketmali bo'ldum.

Dostondagi go'zal sahnalardan biri Yusuf va Zulayhoning visol kechasida she'r aytishib, bir-birovlariga munosabatlarini bildirganlari tasvirlangan qismidir. Bunda ular bir-birovlarining payravlariga g'oyat o'ynoqi g'azallar aytishadi, shu aytishuv davomida hayotdan ko'ngli sovigan Zulayho qaytadan hayotga qaytadi, Yusufning sevgilisiga aylandi.

Masalan, Yusuf Zulayhoga o'z muhabbatini izhor etar ekan, Zulayho uni rad etadi. Shunda Yusuf Zulayhoga qarab quyidagi g'azalni o'qiydi:

Tutashdi, yondi jonimiz, Zulayhojon, jigi-jigi,
Qurudi tanda qonimiz, Zulayhojon jigi-jigi.
Ol bu dunyo xirojini, menga ber husnuing boshini,
Baxsh etdim taxtu tojini, Zulayxojon jigi-jigi.

Yusuf Zulayho uchun taxtu tojdan ham voz kechishga tayyor, ammo uning so'zlari Zulayhoga ta'sir qilmaydi. Shu sababli bu g'azalga javoban Zulayho Yusufni sevgidan voz kechishga chaqirib, quyidagi g'azalni aytadi:

Ey yuzi gul nigorimiz, qilma jafo, jigi-jigi,
Masti ko'ngul uzorimiz, ayla vafo, jigi-jigi.
Tun-kuni ohu zor ishim, ko'klara oshdi nolishim,
Deydi Zulayho: "Yo'q ishim, yorim sanga, jigi-jigi".

Bundan keyin shu radif bilan yana bittadan g'azal aytishadi, Zulayhoning ko'ngli sal yumshaydi. Oxiri Yusuf betoqatlik qilib quyidagi gazalni aytadi:

Ishqingda beqaroram, qilg'il vafo, Zulayhom,
Hajringda intizoram, qilg'il vafo Zulayhom.
Ashkim girdob xoliday, To'fon ila seliday,
Majnun birla Layliday, qilg'il vafo, Zulayhom,
Za'far bo'ldi ishqu hol, Sayfulmulk, Karam lol,
Misli Badiuljamol, qilg'il vafo, Zulayhom.
Iqror bo'lub xaloyiq, diydora ko'r muvofiq,
San-san Uzro man Vomiq, qilg'il vafo, Zulayhom
Boqib nihon zohira, Bobo vazir Bohira,
O'xshab Zuxra Tohira, qilg'il vafo, Zulayhom,

Labing sharobi zam-zam, yuz ming yarog'a malham,
Gar qulungman, ey sanam, qilg'il vafo, Zulayhom.

Nihoyat Zulayho qalbida Yusufga nisbatan sevgi yana g'alaba qiladi va Zulayho buni quyidagi payravida bildiradi:

Kuydum saning ishqingda, nomehribon Yusufim,
Uldum axir shavqingda, nomehribon Yusufim.
Qoshing mahi hiloli, qadding bihisht niholi,
La'li labing misoli obi Hayvon Yusufim
San-san mahi Kanonim, ham dardima darmonim,
Bo'lsun mani bu jonim, sanga qurbon, Yusufim.

Mana shu g'azaldan keyin Yusuf va Zulayho birga hayot quradilar va baxtli yashaydilar.

Andalib dostonidagi o'ziga xoslik shoir tomonidan Yusufning opasi obrazining yaratilganligidir. Bu obraz dostonida faqat bir martagina ko'rinadi, lekin shunga qaramay, u o'quvchida chuqur taassurot qoldiradi. Yusufni akalari sahroga olib ketishgach, Ya'qub g'amgin bir qiyofada uyga qaytadi. Shu payt uning qizi (Yusufning opasi) uyga kirib keladi va otasiga shunday deydi: "Ey ota, maning Yusufimni na qildingiz, nuri-didam va jigargo'sham qani, yuragimning quvvati va jonimning rohati, sirdoshim qani? Man yomon tush ko'rdimki, Yusufimni o'n bo'ri o'rta olib, ani o'lturgali kettilar. Ey, jonim otam, Yusufimni manga ko'rguzgin. yo'q ersa o'zumni halok qilurman"⁶. Otasidan Yusufning og'alari bilan sahroga chiqib ketganini eshitganidan keyin shubhasi yana ortadi, faryod ko'taradi:

Vo hasrato, Yusufimni ko'rmadim,
Diydor qiyomata qoldi, naylayin
So'zlashibon holi dilin so'rmadim

⁶ Q. Tohirov. Xalq qissasi "Yusuf va Zulayho"ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001.

Diydor qiyomata qoldi, naylayin.

Yusuf ham qayerda bo'lmasin opasini eslaydi, uni sog'inadi, chunki onasi yoshligida vafot etganligi uchun Yusufga ko'proq opasi qaragan edi. Bu obraz "G'arib va Shohsanam" dostonidagi G'aribning singlisi obraziga g'oyat yaqindir. Dostonning markaziy qahramonlari Yusuf va Zulayhodir. Andalib o'zining ishq-muhabbat, axloq va odobga doir muhim g'oyalarini ana shu obrazlar orqali ifodalagan.

Yusuf aqlli, sofdil, samimiy muhabbatli inson, mehribon farzand, adolatli va fuqaroparvar shoh, ma'naviy dunyosi go'zal va yuksak insoniy fazilatlarga ega oshiqdir. Unda mustahkam iroda, sabotlilik, chidamlilik, o'z fikrida mustahkam turish xususiyatlari bo'rtib turadi. Ana shu iroda va sabot tufayli quldan ulug' shoh darajasigacha o'sib chiqadi.

Zulayho ham sofdil, ichki va tashqi dunyosi go'zal va kuchli muhabbat egasi bo'lgan vafodor ma'shuqadir. Bu ikki obraz ham asar davomida o'sib, yuksalib boradilar, yo'l qo'ygan xatolarini tuzata borib yuksak ma'naviy kamolotga erishadilar. Buni biz Yusufning o'z boshiga qiyin kunlar tushganda, otasidan zo'rlik bilan ruxsat olganligidan pushaymon bo'lishi, og'alariga nisbatan munosabatining o'zgara borishi hamda oynaga qarab o'z husniga mahliyo bo'lib qilgan maqtanchoqligini eslab qattiq pushaymon bo'lishi kabilarda ko'ramiz. Zulayho dostonning voqealari davomida uch bosqichni o'tadi.

Birinchi bosqichda, u haqiqiy ma'naviy ishqdan uzoqda turgan, faqat hirs asiri bo'lgan qiz sifatida gavdalanadi. Bu sevgi uni tuban ahvolga soladi, u odamlarning malomatiga qoladi, masxara qilinadi. O'zi g'oyat darajada jismoniy zaif va qari kampir bo'lib qoladi.

Ikkinchi bosqichda, Zulayho bu ishqdan voz kechib, zohida ayolga aylanadi, hayotdan uzoqlashadi va faqatgina ilohiy muhabbat bilan yashaydi.

Uchinchi bosqichda, u hyotga qaytadi, uning sevgisi barkamollik kasb etadi, xirs va zohidalikdan, yangi yetuk muhabbat paydo bo'ladi. Bu muhabbat hayotiy

va yuksak ma'naviy tuyg'uga aylanadi. Ung bunday kamolotga erishuvida Yusufning ta'siri kattadir. Shoir ajoyib bir mahorat dastavval ularni axloqiy va huquqiy jihatdan tenglashtiradi va shundan keyingina ularni birlashtiradi.

Masalan Yusuf hali Zulayho mahrami sifatida unga xizmat qilib yorar ekan, bir kun Zulayho uni yangi solingan Qasrga olib kirib sevgi izhor etadi. Yusuf qasrdan chiqib qochayotganida Zulayho uning orqasidan quvib chiqib uning ko'ylagini ushlab tortadi va shu holatda ular tashqari chiqib odamlar malomatiga qoladilar Ayniqsa, Zulayho zabun ahvolga tushadi. Bu voqea osmoniy kitoblardan olinganligi aniq. Ammo Andalib shunga o'xshash yana bir lavha yaratib Yusuf va Zulayhoni tenglashtiradi.

Oradan bir qancha yillar o'tib Yusuf mamlakat podshohi bo'lib, Zulayho ozod qizga aylangach, unga Yusufning ishq tushadi va Zulayhoga sevgi izhor etadi. Biroq Zulayho bu paytda zohidaga aylangan edi. Shu sababli u Yusuf sevgisini rad etib tashqariga qochadi. Yusuf esa uning orqasidan quvib ko'ylagidan ushlab yirtadi va shu holatda ular odamlar ko'ziga ko'rinadilar.

Zulayho va Yusuf shu epizzoddan keyin go'yo har tomonlama tenglashadilar va ko'p o'tmay Zulayho Yusufga qaytadan mehr qo'yadi.

Andalib har bir obrazni o'ziga xos talqin kilishga harakat qiladi; ularga yangi-yangi xislatlarni mujassam etadi.

Andalib Malik Rayyon va Misr Azizi obrazlarini birlashtirib, ular bajaradigan vazifani Malik Rayyon ustiga yuklaydi va shu orqali bu obrazning ancha mukammal chiqishiga sabab bo'ladi. Yusufning o'zi asarda Misr Azizi degan unvonga sazovor bo'ladi, chunki u o'z tadbirkorligi bilan Misr axolisini yetti yillik ochlikdan omon saqlaydi. Bu yetti yilda faqat bir kishi ochlikdan o'ladi. Shunga ham Yusuf o'zini gunohkor sanab ancha qayg'uradi.

Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostoni o'zining g'oyaviy xususiyatlari bilan birga badiiyligi va tili nuqtai nazaridan ham o'ziga xos fazilatlarga egadir.

Avvalo shuni qayd qilish kerakki, umuman, Yusuf va Zulayho sarguzashtini tasvirlashga bagishlangan asarlar boshqa asarlardan o'zining bir fazilati bilan ajralib turadi. Bu "Yusuf va Zulayho" qissasidagi syujetning har bir bo'lagi qahramonlarning tush ko'rish voqeasi bilan boshlanishidir. Hech qaysi dostonda "Yusuf va Zulayho"dagidek qahramonlar ko'p tush ko'rmaydilar. Odatda, boshqa dostonlarda tush ko'rish asar boshida yuz beradi va u voqealarning boshlanishi va rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu syujetda esa ishtirok etadigan hamma asosiy qahramonlar tush ko'radilar va ularning bundan keyingi faoliyatlari shu tush bilan bog'langan bo'ladi. Masalan, Yusufning kelajagidagi saodati, payg'ambar bo'lishi kabilar uning ikki marta ustma-ust ko'rgan tushidan ma'lum bo'lsa, ota va o'g'il orasida yuz beradigan hijron, ularning tortajak azob-uqubatlari, Yusuf boshiga tushadigan kulfatlar Yaqubning tushidan bilinadi. Moliki Tojirning Yusufni sotib olishi va shu orqali badavlat kishiga aylanishi ham avvalo tushda xabar qilinadi. Zulayho ham Yusufni tushida ko'radi va oshiq bo'ladi. Ikkinchi tushi sababli esa Misrga keladi va kulfatga duchor bo'ladi. Saroy xizmatchilari Safo va Xonso ham tush ko'rishadi va shu tush tufayli biri yana o'z joyiga tayinlanadi, baxtiyor bo'ladi, ikkinchisi esa dorga osiladi va qushlarga yem bo'ladi.

Dostonning bundan keyingi voqealari esa, Rayyoning tushi bilan rivojlanadi, Yaqubning Yusuf visolidan umidvor bo'lishiga ham tush sabab bo'ladi va nihoyat, Yusufning vafoti ham tushida xabar qilinadi. Albatta, bu tushlarning ko'pchiligi ilohiy mo'jizalar bilan izohlanadi. Ular dostoning rivojlanishiga, voqealarning bir-birovi bilan bog'lanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Yuqorida ko'rganimizdek, mufasssirlarning fikricha Yusuf qissasining "Ahsanul qisas" deb nomlanishi sabablaridan biri ham bu qissaning boshi, o'rtasi va oxirida tush ko'rish voqeasining borligidir.

Doston mazmunining bo'laklari o'zaro bir-birovi bilay mustahkam bog'langan, agar undan biron voqea yoki sahna olib tashlansa, asarning g'oyasiga albatta zarar yetadi. Buning asosiy sababi shundaki, undagi voqealarning hammasi bir-biroviga aloqador qilib berilgan, birining yuz berishiga ikkinchisi sabab qilib

ko'rsatilgan. Masalan, butun qissaning yuzaga kelishiga Ya'qubning o'z kanizagi o'g'lini sotib yuborganligi sabab qilib ko'rsatilsa, Yusufning Misrga kelishi sababi Zulayhoning tushi bilan izoxlanadi. Misrlik Moliki Tojirning tushi esa Yusufni Misrga keltiradi. Yusufning quduqqa tushishiga bir zohidning ko'p yillardan beri Yusuf jamolini ko'rish istagi bilan shu quduqda yotganligi sabab qilib ko'rsatilsa, uning o'n sakkiz qora tangaga sotilishi oynaga qarab mag'rurlanganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Yusuf va Zulayho o'rtasidagi munosabatning g'oyat chigallashib ketganligiga Zulayho ishqining dastavval haqiqiy ishq emas, balki, hirs bo'lganligi sabab qilib ko'rsatiladi va hokazo.

Shunday qilib, asarning boshidan oxirigacha, yuz beradigan voqealar bir-birovi bilan o'zaro aloqador qilib ko'rsatilgan. Bu asarning tarkibi yaxlit bo'lishini taminlagan, garchand ular ilohiy qudrat bilan bog'lansa ham, zamirida hayotiy masala, axloq yotadi. Yusufning oynaga qarab mag'rurlanganligi voqeasi va uning oqibatini olib qaraylik. Yusuf yoshligida xatoga yo'l qo'yib o'z husnidan mag'rur bo'ladi, o'zini bahosiz deb hisoblaydi. Shu tufayli quduq boshida g'oyat arzon bahoda - o'n sakkiz qora tangaga sotiladi. Albatta, shoir bu yerda Yusufni xudo jazoladi, deb ko'rsatadi, bunday qaraganda, voqeya diniy xarakterga ega, ammo bu bilan shoir haqiqatda mag'rurlikni qoralagan, kamtarlikni ulug'lagan va kamtarlik hamma uchun-xoh u kambagal bo'lsin, xoh boy bo'lsin, xoh go'zal bo'lsin zarur deb ko'rsatgan. Ana shunday xususiyatni dostonidagi boshqa sahnalarda ham ko'rish mumkin.

Qisqasi, Nurmuhammad Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostoni o'zining g'oyaviy mundarijasi va badiiy xususiyatlari bilan faqat o'zbek va turkman adabiyotlari tarixidagina emas, balki umuman, Yusuf va Zulayho haqidagi asarlar taraqqiyoti tarixida ham muhim o'rin egallaydi.

Shuni ham qayd etish kerakki, Andalibning bu qissasi keyingi ikki asr davomida yuzlab nusxalarda ko'chirilish bilan bir qatorda, ko'plarning qalami bilan qayta ishlangan, o'zgarishlar kiritilgan. Buning natijasida bir-birovidan farq qiluvchi ko'p nusxalar vujudga kelgan. Ayniqsa Xorazmlik xalfalar bu sohada

katta xizmat qilishgan. Ularning asar matniga kiritgan yangi-yangi lavhalari, qahramonlar tilidan aytilgan she'r-qo'shiqlar qissaning turli variantlarini yuzaga keltirgan.

Bu asar xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning eng yaxshi fazilatlarini o'zida mujassam etgan. Shuning uchun uni o'qib tushunish boshqa mumtoz asarlardan ko'ra osonroq.

O'tmish adabiy merosini mukammal o'rganish uchun uning tilini, fikr ifodalash, jumla tuzish tartibini bilish zarur. Buning uchun Andalibning ushbu asariga o'xshagan doston va qissalar Abulg'ofi Bahodirxon, Muhammad Yusuf Bayoniy, Munis va Ogahiy kabilarning tarixiy asarlari dastlabki manba' bo'lib xizmat qilishi mumkin. Alisher Navoiy, Lutfiy, Rabg'uziy, Bobur kabilarning asarlarini o'qib tushunadigan bo'lish uchun avval shu xildagi asarlarni mutolaa qilish, ularda uchraydigan tushunish og'ir so'zlarning ma'nosini bilish talab qilinadi.

Asar kirish va asosiy qismdan tarkib topgan. Kirish qismi 50 bayt bo'lib unda hamd va na't, kitob yozilish sababi, qisman tarjimayi holi hamda asar tuzilishiga to'xtalib o'tadi. Asar faqat she'riy yoki nasriy emas, balki o'rni bilan ikki uslub almashib keladi. Bu haqda kirish qismda aytib o'tilgan. Aytishuvlar, diologlarda g'azal va muxammaslardan ham o'rinli foydalanilgan. Bu sheriy usul zamonaviy adabiyotimizdagi she'riy dramani esga soladi. Nasr va nazm uyg'unligi, ya'ni almashib kelishi esa xalq og'zaki ijodi dostonlariga tomon yaqinlashtiradi. Quyida kirish qismini to'liq kiritdik.

“BISMILLOHIR RAHMONIR RAHIM

Hazrati G'affor Izim Zuljalol,

Yo'qtur oning birligina qilu qol.

Yakkayu yagona erur bezavol,

Fardu Samad qodir erur loyazol.

Xoliqu Razzoq erur bemasal,
Yo'qtur oning qilg'on ishiga jadal
Quadratidin haydir, o'zi loyamut,
Barcha haloyiqg'a berur rizqu qut.
O'z nuridin qildi Muhammadni hay,
Zoti tajallidin anga berdi may.
Bakru Umar, Shohi zualnurini,
Yor qilib ham Ali nur aynini.
Yuz yigirma to'rt mingni nuridin,
Bo'ldi Muhammadning hama nuridin.
Barchasining shohi erur Mustafo.
Bo'ldi tufaylidin oning du saro.
Rahmat uchun olam aro Zuljalol,
Xurmatidin Ahmadi Muxtorning,
Pok vujudi guli bexorning.
Andalibing mushkilin oson qil,
Qodir egam, dardina darmon qil.
Bo'lmagay hech dardu gunohdin zabun,
Nafs ila shayton manga rahnamun.
Qutqor o'zung nafs ila shaytondin,
Qilma judo gavhari imondin.
Jurmum erur gar mani beintiho,
Nafs ila shaytona qilib mubtalo.
Yo'l adashib cho'lda qolibman, netay,
Tashna bo'lib qaysi makona ketay.

Yo'qtu mani boshlaguchi rohbar,
Qilmani idrok nedur bahru bar.
Bandalara lutfing erur oshkor,
Budur umid: fazling erur beg'ubor.
Bir nechaga qahru itob aylading,
Foniya uqbida azob aylading.
Yerlaqading necha gunohkorni,
Ko'rdi alar oxirda diydorni.
San bilasan: jurmu gunah manda bor,
Oh netay, bo'yla xato manda bor.
Bor umidim: fazling erur beadam,
G'ofiru Sattor Izim, yo Ahad.
Andalib aydi bu munajatni,
Kodir egam, qil qabul hojatni.
Necha mahal erdi farog'at ishim,
Yo'q edi hech kimsa bila donishim.
Keldi maning qoshima bir shahsuvor,
Lafzi farax, yaxshi so'za intizor.
Keldi yana bir necha hamdardlar,
Qurbu shijoatda sharamardlar.
Barchalari erdi manga hamnashin.
Yuzlari gul, so'z shakaru angubin.
Dedi alar: «Andalibi benavo,
Ko'nglumiza tushti ajab mojarro.
Bor qasis ichra ajab doston,

Na bo'ladur qilsang ani bo'ston.
Yusufi Siddiqu Zulayhoni san,
Turki xaloyiqg'a qilib bir chaman.
Aldin ala olib oni qilsa bo'y.
Bir necha zebolar aro guftugo'y.
Ishqi haqiqiyni saboq aylasun,
Bo'yla erur oshiqi pok anglasun.
Bilsun o'zin ishq yo'lin tutmasun,
Bo'ylaki daviyi durug' etmasun.
Ushbu so'zi qildi hikoyat alar,
Yusufi Siddiqdin rivoyat alar
Andalibing maqsadidur bo'ston,
Ko'ngliga xush keldi ajab doston.
Ayladi turki til ila ibtido,
Goho nasr, goh g'azali xushnavo.
Bir nechasin nazmu muxammas qilib,
Oshiqu mashuqlara vobas qilib,
Ismim erur Nurmuhammad Garib,
So'zda taxallusim edi Andalib.
Shahrimiz Urganch viloyat edi,
Xonimiz Shah G'ozi himoyat edi,
Asli makonim ki Qaromozidur,
Odami ishratda qishu yozidur.
Qorilari zikri xudo birla shod,
Kechayu kunduz qilibon haqni yod.

Xayru saxovatda yigitlar chunon,
Har biridur Hotamitoy onchunon.
Borchalari ichra man erdim zabun,
Aqlim erdi goh xush, gohi junun.
Goh xaroboti ishim, goxi fig'on,
Kulbayi ahzon edi gahe makon.
Bu sifat umrumni uturdum, darig',
Nuri hidoyatni, netay, tutdi mig'.
Oh netay, o'tdi umr, voy-voy,
«Razling ila so'rg'il o'zing, ey xudoy.
Borcha xaloyiq ichida badishim,
Yetib ellik beshga maning bu yoshim.
Qilmadim hech tavba nasux jon ila,
Bo'lmadim hech amr ila, farmon ila.
Hech kishi qilmas gunahlar manda bor,
Man kabi rasvoyi jahon qanda bor.
Garchi gunah manda erur begaron,
Rahmati Allohga erur pur jahon.
Qilsa karam daryosi chun mavji on,
G'arq etar ul, yaxshi qolur, ne yomon.
Andalibing barcha ishidur xato,
Garchi xato haqdin erur kub ato”⁷.

Asosiy qism 30 ta katta-kichik boblardan tarkib topgan. Har bir bob ma'lum nom bilan ataladi. Asosiy qism “Bu doston hazrati Ya'qub alayhissalomning

⁷ Q. Tohirov. Xalq qissasi “Yusuf va Zulayho”ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001.

bayonida”, “Yusuf alayhissalom tush ko’rgani” va hokazo naomlar bilan davom etgan. Doston “Yusuf alayhissalom dorulfanodin dorulbaqoga rihlat qilgani” nomli bob bilan yakunlanadi. Asardagi she’riy parchalar ham ko’p qismni tashkil etadi. Dostonda yetmishga yaqin g’azal bor. Bu g’azallar qahramonlar tilidan aytilgan. Mavzu tarkibiga nazar tashlasak, asosan, shaklan diologik xarakterga ega. Faqatgina bitta g’azal Andalib tilidan aytilganining guvohi bo’lamiz. Shu bilan birga g’azal shaklidagi noma janri namunalarini ham uchratamiz. Dostonda uchta noma kiritilgan. Bundan tashqari, murabba shaklidagi savol-javob munozaralarini ham ko’ramiz. Asarda to’rtta savol-javob shaklidagi munozara mavjud. Asar boblari raqamlanmagan, shartli ravishta 24-bobda, birgina muxammasni uchratamiz. U “Muxammasi Ya’qub alayhis-salom” deb berilgan.

“Muxammasi Ya’qub alayhis-salom:

Shukriolloh keldimu ul guluzorimdin xabar,

Qirq yil o’ldi ayro tushgan shahsuvorimdin xabar,

Hajridin zor yig’lagon laylunahorimdin xabar,

Yusuf otlig’ qirmizi yuzluk anorimdin xabar,

Bilmanam bul voqeani rost bo’lgay yo xayol,

Toqatim yo’qdur yuzun to ko’rmaguncha bemalol,

Man sanga topshurmisham saqla ani, yo zuljalol,

Shukriolloh bor umidim ko’rguzur andin jamol,

Keldi Yusuf qirmizi yuzluk anorimdin xabar.

Bu xabar qaydin kelur haqdin inoyat bo’lmasa,

Maqsada yetmas kishi haqdin hidoyat bo’lmasa,

Ibrohim, Ismoil, Is’hoqdin shafolat o’lmasa,

Dushmanu ag’yordin yona malomat o’lmasa,

Keldi Yusuf qirmizi yuzluk anorimdin xabar.

Vosil o’lmas hech kishi to dog’i hijron bo’lmadi,

Chekmadi hech kimsa bir dardiga darmon o'lmadi,
Yo'qdi bir obodlik to xonavayron o'lmadi,
Ko'nglum ichra, do'stlar, zarra pushaymon o'lmadi
Keldi Yusuf qirmizi yuzluk anorimdin xabar.
Ya'qubo, shukr et xudoga, ketti qayg'u-keldi shod,
Haq taolo Yusufimning umrini qilsun ziyod,
Oqil uldur qilmagay haqdin digarga e'timod
Sabr etib bel bog'ladim, qildim xudoga e'tiqod,
Keldi Yusuf qirmizi yuzluk anorimdin xabar"⁸.

Doston o'ziga xos kompozitsion qurilishi bilan ham tuzilish jihatdan ham alohida ajralib turadi. Undagi she'riy parchalar ham g'oyaviy badiiy jihatdan ham mos tushgan. Har bir she'riy parcha asarda ma'lum yuk tashiydi. Asar jozibasini ta'minlashga xizmat qilgan. Asarda kelgan she'riy shakllardan ijodkorning g'azalnavislikda ham o'rni katta ekanidan darak. Asar mazmunidan kelib chiqqan holda aksariyat g'azallar hasbu xol xarakterga ega. Shu jumladan muxammas ham hasbu xol mazmunda ekanligi ko'rinib turibdi.

⁸ Q. Tohirov. Xalq qissasi "Yusuf va Zulayho"ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001.

Xulosa qilar ekanmiz, Qur'oni karimda qissalarning go'zali deb atalgan Yusuf qissasi juda qadimiy syujetlardan biri ekanligi. Muso alayhissalomga nozil qilingan Tavrotning birinchi kitobiga, keyin Iso alayhissalom ta'limotini o'z ichiga olgan Injilga kiritilganligi haqida bilimlar hosil qildik. Bu qissa Qur'oni karimga "Yusuf surasi" bo'lib kiradi.

Fors-tojik va o'zbek adabiyotida Qissaning Tavrot nusxasi ham katta ta'sir ko'rsatganligini aniq his etish uchun Qur'oni karim va Tavrot nusxalarini qiyoslash kerak bo'ladi.

Qur'oni karimdan boshlab bu syujet islomiy adabiyotda dastlab arab, keyin fors-tojik va turkiy tilda yaratilgan sharhlar va qissalarda mukammallashtirila boshlandi. Bunda ayniqsa "Ka'bul-axbor" degan nom olgan Abu Is'hoq Ka'b ibn Mote (VII asr)ning xizmati katta bo'lgan, chunki ko'p manbalarda, jumladan, "Qisasul anbiyo"yi Rabg'uziyda ham "Ka'bul-axbor" qissalar to'plami ko'p tilga olingan. Bu kitob boshqa qissa va dostonlarga ham manba bo'lib xizmat qilgan.

Sharq badiiy adabiyotida bu mavzu dastlab Abulqosim Firdavsiy tomonidan ishlangan degan fikrlar bor. Bu fikrga e'tiroz bildirganlar ham yo'q emas. Har holda bu syujetni IX-X asrlardan boshlab to XX asr boshlariga qadar arab, fors, turk, o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, tatar va boshqa tillarda yuzdan ortiq mualliflar qalamga olganlar.

O'zbek adabiyotida Qur'oni karimdan boshlab Ali (XIII asr), Rabg'uziy (XIII-XV asrlar), Durbek (XIV-XV asrlar), Alisher Navoiy (XV asr), Andalib (XVIII asr), Sayqaliy (XVIII asr), Salohiy (XVII-XIX asrlar), Xolis (XVIII-XIX asrlar), Xiloliy (XVIII-XIX asrlar), Mirzo Olimbek (XIX asr) va boshqalar ijodlarida bu syujet murakkab jarayonni boshdan kechirdi. U davrdan davrga dunyoviylashib zamonaviylashib bordi.

Yusuf va Zulayho sarguzashtlarining g'oyat xalqchil, ommabop va xayotiy bo'lishida XVIII asrda yashab ijod etgan va o'zbek hamda turkman xalqlari o'rtasida mashhur bo'lgan shoir Nurmuhammad Andalib katta hissa qo'shdi.

Doston ma'naviy mavzu va syujet asosida yozilganligi sababli, uning asosiy syujeti ilgari yozilgan asarlarga o'xshash. Lekin Andalib ko'proq qahramonlarning paygambarlik sifatlariga emas, balki oddiy insonlar singari harakat qilishlariga asosiy e'tiborni qaratadi. U o'z davriga xos bo'lgan muhim masalalarni, o'z zamondoshlari orzu-maqсадlarini asarga singdiradi.

Andalib dostonidagi o'ziga xoslik shoir tomonidan Yusufning opasi obrazining yaratilganligidir.

Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostoni o'zining g'oyaviy xususiyatlari bilan birga badiiyligi va tili nuqtai nazaridan ham o'ziga xos fazilatlarga egadir. Avvalo shuni qayd qilish kerakki, umuman, Yusuf va Zulayho sarguzashtini tasvirlashga bagishlangan asarlar boshqa asarlardan o'zining bir fazilati bilan ajralib turadi. Bu "Yusuf va Zulayho" qissasidagi syujetning har bir bo'lagi qahramonlarning tush ko'rishi voqeasi bilan boshlanishidir. Hech qaysi dostonda "Yusuf va Zulayho"dagidek qahramonlar ko'p tush ko'rmaydilar.

Shunday qilib, asarning boshidan oxirigacha, yuz beradigan voqealar bir-birovi bilan o'zaro aloqador qilib ko'rsatilgan.

Asardagi she'riy parchalar ham ko'p qismni tashkil etadi. Dostonda yetmishga yaqin g'azal bor. Bu g'azallar qahramonlar tilidan aytilgan. Asarda to'rtta savol-javob shaklidagi munozara mavjud. Asar boblari raqamlanmagan, shartli ravishda 24-bobda, birgina muxammasni uchratamiz.

Doston o'ziga xos kompozitsion qurilishi bilan ham tuzilish jihatdan ham alohida ajralib turadi. Undagi she'riy parchalar ham g'oyaviy badiiy jihatdan ham mos tushgan. Har bir she'riy parcha asarda ma'lum yuk tashiydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1. V. Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. 2-kitob. T.: "O'qituvchi" 1980.**
- 2. I. Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T.: "Fan" 2009.**
- 3. Q. Tohirov. Xalq qissasi "Yusuf va Zulayho"ning matni va tadqiqi. Sam.: 2001.**
- 4. R. Orzibekov. (XVII-XIX asr I yarmi) T.: 2006.**
- 5. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. T.: 1978.**
- 6. O'zbek adabiyoti. Majmua. 4 va 5-tomlar. T.:**
- 7. F. Musamammedov. Shoir Andalib haqida / O'zbek tili va adabiyoti. Jurnal. 1963. №4. 63-bet.**